
OBODLIK BUNYODKORLARINING MEHNATLARI E'TIROF ETILDI

Farg'ona shahrida bunyod bo'layotgan va "Farg'ona mo''jizasi" deya e'tirof etilayotgan Eko shaharda shahar hokimligi tashabbusi bilan "Hormang quruvchi, bunyodkorlar!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbir tashkillandi. Tadbirni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'linmasi rahbari Azizbek Soyibnazarov ochib, tadbir ishtirokchilari bo'lgan bunyodkorlarning mehnatlarini e'tirof etdi.

Tadbir davomida shahar madaniyat bo'limining xushovoz xonandalari tomonidan dilrabo kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Quruvchilar va ko'kalamzorlashtirish ishlariga mas'ul bo'lgan xodimlar madaniy xordiq oldilar.

Tadbirda FarPI birinchi prorektori Mirzohid Botirov ham ishtirok etib, quruvchilarimiz, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol ishtirok etayotganlarning mehnatlarini ulug'ladi, ishlariga rivoj tiladi. "Farg'ona", "Vatan", "Ona" kabi she'rlari bilan bunyodkorlar olqishlariga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, tadbir davomida faol bunyodkorlar, opa-singillarimiz shahar hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi hamda Kasaba uyushmasining esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirildilar.

2022-09-17 14:42:01